

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODA TINCHLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich,

Namangan Davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi,

[*bobomurodtillayev@gmail.com*](mailto:bobomurodtillayev@gmail.com)

Qayumova Munajat Rahimjanovna,

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

[*kayumovamunajat0085@gmail.com*](mailto:kayumovamunajat0085@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tinchlik va barqarorlikni saqlashdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqola O'zbekistonning Afg'oniston bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish, hududiy nizolarni hal etishdagi diplomatik faolligi, mintaqaviy hamkorlik doirasidagi tashabbuslari va xalqaro tashkilotlar bilan olib borilgan ishlarini tahlil qiladi. O'zbekistonning bu yo'nalishdagi siyosati mintaqadagi siyosiy barqarorlikka, iqtisodiy integratsiyaga va umumiy xavfsizlikka ijobiy ta'sir o'tkazishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Tinchlik, Barqarorlik, Mintaqaviy Diplomatika, Afg'oniston, Xavfsizlik, Diplomatik Faollik, Mintaqaviy hamkorlik Xalqaro Tashkilotlar.

РОЛЬ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ МИРА И СТАБИЛЬНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Тиллаев Бобомурод Абдувохидович, Наманганский государственный

педагогический институт, старший преподаватель,

[*bobomurodtillayev@gmail.com*](mailto:bobomurodtillayev@gmail.com)

Каюмова Муножат Рахимжановна, Наманганский государственный

*педагогический институт, студентка, [*kayumovamunajat0085@gmail.com*](mailto:kayumovamunajat0085@gmail.com)*

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Узбекистана в поддержании мира и стабильности в Центральной Азии. Анализируется активность Узбекистана в развитии дружественных отношений с Афганистаном, дипломатические усилия по урегулированию региональных конфликтов, инициативы в рамках регионального сотрудничества, а также взаимодействие с международными организациями. Политика Узбекистана в этом направлении направлена на укрепление политической стабильности, экономической интеграции и общей безопасности в регионе.

Ключевые слова: Центральная Азия, Узбекистан, мир, стабильность, региональная дипломатия, Афганистан, безопасность, дипломатическая активность, региональное сотрудничество, международные организации.

THE ROLE OF UZBEKISTAN IN ENSURING PEACE AND STABILITY IN CENTRAL ASIA

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich, Namangan state pedagogical institute, senior teacher, bobomurodtillayev@gmail.com

Qayumova Munajat Rahimjanovna, Namangan state pedagogical institute, student kayumovamunajat0085@gmail.com

Abstract: This article examines the role of Uzbekistan in maintaining peace and stability in Central Asia. It analyzes Uzbekistan's efforts in fostering friendly relations with Afghanistan, its diplomatic activities in resolving regional conflicts, its initiatives within the framework of regional cooperation, and its collaboration with international organizations. Uzbekistan's policy in this direction is aimed at strengthening political stability, economic integration, and overall security in the region.

Keywords: Central Asia, Uzbekistan, peace, stability, regional diplomacy, Afghanistan, security, diplomatic activity, regional cooperation, international organizations.

Markaziy Osiyoning yuragi O'zbekiston geosiyosat va tabiiy resurslari babida mintaqadagi eng muhim mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu holat O'zbekistonni mintaqaviy hamda global darajadagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalalarida muhim o'yinchiga aylantirgan. O'zbekiston, Markaziy Osiyodagi eng yirik va aholi soni bo'yicha birinchi o'rinda turuvchi mamlakat sifatida, mintaqa tinchligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekistonning geosiyosiy va strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, mamlakatning tinchlikparvarlik siyosati va ko'p qirrali tashabbuslari Markaziy Osiyo xavfsizligininng asosiy qismlari hisoblanadi. O'zbekistonning mintaqa tinchligiga qo'shgan hissasi bir qancha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Samarqand shahrida 2017-yil 10—11-noyabr kunlari BMT shafeligida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi [1].

Forum O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi minbaridan bildirilgan hamda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy

hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha muhim amaliy qadamlardan biri bo'ladi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoni osoyishtalik, barqaror taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylantirish davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Anjuman O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, BMTning Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi hamda BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi hamkorligida tashkil etildi.

Samarqand konferensiyasi uning ishtirokchilariga mintqa xavfsizligi va taraqqiyotiga doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashish, ularni hal qilishning samarali yo'llarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratishi kutilmoqda. Ikki kun davom etgan forum Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-kommunikatsiya, suv-energetika, ekologiya va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik sur'atini oshirishning aniq yo'nalishlari, shuningdek, taraqqiyot bo'yicha hududiy loyihalarni amalga oshirish hamda zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi kurashishda mamlakatlar salohiyatini yuksaltirishga ko'maklashishda xalqaro tashkilotlar va hamkor davlatlarning o'rnini muhokama qilish imkonini beradi [2].

Yana shu yil 3–4-aprel kunlari Samarqanda O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbarlari ishtirokida "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti bo'lib o'tdi.

Yevropa kengashi prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo birinchi sammitida ishtirok etish uchun O'zbekistonga tashrif buyurdilar [3].

Sammit YIga Markaziy Osiyo bilan ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishdan geosiyosiy manfaatdorligini namoyish etish uchun asosiy imkoniyat yaratdi. O'zgaruvchan geosiyosiy manzarada Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi munosabatlar tobora strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Sammit davomida YI o'zaro manfaatli sohalarda, jumladan, transport va raqamli aloqa — mintqa ichida va YI bilan, strategik xomashyo, iqtisodiyot va xavfsizlik, toza va samarali energiya manbalariga o'tish bo'yicha hamkorlikni kengaytirishga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi [4].

Yevropa Kengashi prezidenti Antonio Kostaning sammitdagi nutqi buning yaqqol tasdig'i bo'lib, u ko'p qutbli dunyoda yanada faol va maqsadli hamkorlik zarurligini "Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo" birinchi sammiti xalqaro huquq normalariga to'liq rioya qilgan holda tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish yo'lida birgalikda harakat qilish bo'yicha umumiy sadoqatni mustahkamlashini ta'kidladi.

Uning soʻzlariga koʻra, geosiyosiy ziddiyatlar va global tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda hech bir mintaqqa xalqaro hamkorliksiz oʻz oldida turgan murakkab masalalarni mustaqil hal eta olmaydi. Shu bois Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi oʻzaro yaqin hamkorlikka tobora koʻproq ehtiyoj sezmoqda [5].

Sammitda Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari ishtirok etib, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilishdi. Shuningdek, Oʻzbekiston yetakchisi mintaqadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashayotganini qayd etib, qoʻshni davlatlar oʻrtasidagi savdo va investitsiya loyihalarining kengayib borayotganini eʼtirof etdi.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi oʻrtasida strategik sheriklik oʻrnatish haqida qabul qilinayotgan hujjat qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni birligida ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi koʻrsatib oʻtildi.

Strategik sheriklikni aniq qarorlar, loyiha va dasturlar bilan boyitish maqsadida ikki mintaqamiz oʻrtasida sheriklik va hamkorlik boʻyicha toʻlaonli Bitimni imzolash masalasini koʻrib chiqish taklif etildi.

Oʻzbekiston Prezidenti mintaqqa mamlakatlarini Yevropaning raqamli taʼlim sohasidagi Harakatlar dasturiga kiritish, shuningdek, yetakchi oliy taʼlim muassasalari oʻrtasidagi sheriklikning "yoʻl xaritasi"ni amalga oshirish boʻyicha takliflar bildirdi [6].

– *Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasini joriy etish asosida “Bir tur – butun mintaqqa” konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, mintaqamiz sayyohlari uchun viza rejimini soddalashtirish masalasini koʻrib chiqishda yevropalik sheriklarimizning koʻmagiga tayanamiz, - dedi Shavkat Mirziyoyev.*

Terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kiberjinoyatchilik, narkotrafik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda hamkorlik qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Yevropalik hamkorlarning terrorizmga qarshi kurash masalalari boʻyicha muloqotni yoʻlga qoʻyish taklifi qoʻllab-quvvatlandi.

Yigʻilishda delegatsiyalar rahbarlari ikki mintaqqa oʻrtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish boʻyicha takliflar bildirdi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda transport koridorlari va iqtisodiy hamkorlik loyihalarini rivojlantirishga ham katta ahamiyat berib kelmoqda. Mintaqada erkin savdo hududlarini yaratish va transport yoʻlaklarini diversifikatsiya qilish orqali, Oʻzbekiston mintaqaviy savdo-sotiq va investitsiyalarni oshirishga intilmoqda.

Madaniy va Insonparvarlik Faoliyatlari

Madaniy va insonparvarlik sohalarida ham Oʻzbekiston mintaqadagi madaniy almashinuv va taʼlim dasturlarini qoʻllab-quvvatlashga eʼtibor qaratmoqda. Madaniy meros va tarixiy obidalarini asrab-avaylash, mintaqadagi xalqlar oʻrtasida doʻstlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash boʻyicha juda muhim oʻrin tutadi. Mustaqillikdan

keyingi davrda O'zbekiston o'z tashqi siyosatida mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlikni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, bu borada bir qator muhim qadamlarni tashladi. Chegaralar masalasida yechimlar topish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xavfsizlik bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorliklar mustahkamlash yondashuvlari O'zbekistonning mintaqada tinchlik ombori sifatidagi obro'sini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mintaqada barqarorlikni saqlash bu yilgi siyosatning asosiy ustunlardan biridir va O'zbekiston ushbu siyosatni quyidagi yo'llar orqali amalga oshirib kelmoqda:

Mintaqaviy Muvozanat: O'zbekiston o'z siyosatida qo'shnilar bilan iqtisodiy hamkorlikni va siyosiy muloqotni mustahkamlashga intiladi. Bu orqali mintaqadavlatlari o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratishga hissa qo'shadi.

Xavfsizlik Hamkorliklari: Terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston Markaziy Osiyoda faol rol o'ynaydi. Markaziy Osiyo doirasida hamda xalqaro hamkorlik asosida amalga oshiriladigan xavfsizlik tadbirlari, shuningdek terrorizm va ekstremizmga qarshi ko'rilgan chora-tadbirlar mintaqaviy xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Integratsiya: Energetikadan tortib savdo-sotiqgacha mintaqaviy loyihalarda ishtirok etib, O'zbekiston iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga yordam bermoqda. Shu tariqa mintaqadagi mamlakatlar iqtisodiyotlarini rivojlantirishga va mintaqadagi umumiy barqarorlikni mustahkamlashga qo'shimcha hissa qo'shiladi.

Madaniy va Ma'rifiy Tashabbuslar: O'zbekiston madaniy va ma'rifiy sohalarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirib, xalqlar orasida mehr-oqibat va o'zaro hurmatni targ'ib qilmoqda. Bu esa turli millatlarning o'zaro muloqotini yaxshilashga va mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [7].

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosatida yuqorida sanab o'tilgan vazifalar diqqat markazida turibdi va mamlakat bu yo'nalishda salmoqli natijalarga erishgan. Zarur diplomatik sa'y-harakatlar va iqtisodiy integratsiya ko'zda tutilgan holda, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rni yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqada umumiy taraqqiyot va farovonlik uchun ushbu siyosat kelajakda ham davom etishi kutilmoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi ishtiroki, mintaqada ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirishi va xavfsiz niyatlarini namoyish etishni davom ettirishi bilan mintaqaviy lider sifatida o'z o'rnini mustahkamlamoqda. Mamlakatning bu boradagi siyosati, Markaziy Osiyo mintaqasining umumiy taraqqiyotida mustahkam poydevor yaratishga yordam bermoqda. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi roli nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro darajada ham e'tirof etiladi. O'zbekistonning mintaqaviy siyosatida ochiqlik, o'zaro hurmat va hamkorlikning ustun qo'yilishi mamlakatni mintaqadagi tinchlik va taraqqiyotning

muhim ishtirokchisiga aylantirgan. Mamlakatning ushbu siyosati kelgusida ham Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqarorligining kafolati bo'lishda davom etishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Central Asia: A New Hub of Global Security" — bu tahliliy maqola mintaqadagi xavfsizlik muammolarini va O'zbekistonning rolini batafsil muhokama qiladi.
2. "Uzbekistan's Foreign Policy: The Struggle for Recognition and Security in Post-Soviet Central Asia" — bu kitob O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi tashqi siyosati va uning mintaqadagi xavfsizlikka ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi.
3. "O'zbekiston va Markaziy Osiyoning kelajagi" - O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi nashri.
4. "O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikdagi roli" - Markaziy Osiyo strategik tadqiqotlar instituti tomonidan chop etilgan maqolalar to'plami.
5. "Markaziy Osiyo Strategiesi: O'zbekistonning Mintqaviy Ro'li" - Tashqi ishlar vazirligi tomonidan nashr qilingan nashriyot.
6. "Markaziy Osiyoda Tinchlik Sahnasining Yangi O'yinchisi: O'zbekistonning Tashqi Siyosat O'zgarishlari" - Markaziy Osiyo Analitik Markazi tomonidan taqdim etilgan maqolalar to'plami.
7. Atabayeva, N., & Qodirov, A. (2024). BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTONNING BILAN TURKISTON DIPLOMATIK MUNOSABATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 2(2 (17)).